

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN POYABZAL ISHLAB CHIQRARISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasi

1. Zamonaviy charm buyumlarining konstruktiv tavsifi.
2. Bolalar poyabzali va ular uchun ishlatiladigan materiallar.
3. Qoliplarning tovon qismini ko'tarilish balandligi.
4. Qismlarni mexanik usul bilan biriktirish.
5. Poyabzal ustki detali uchun charmni sarflash me'yori va foydalanish foizini aniqlash.
6. Poyabzalning tag detallarini loyihalash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Zamonaviy charm buyumlarining konstruktiv tavsifi.	Zamonaviy poyabzallar konstruksiya jihatidan qiyofasi ko‘rinishi ishlatiladigan materiallari, detallarning tuzilishi, soni, shakli va o‘lchamlari va shuningdek detallarning o‘zaro tikilishi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	55 %	22 ta
2	Bolalar poyabzali va ular uchun ishlatiladigan materiallar.	Bolalar poyabzali va ular uchun ishlatiladigan materiallar va ularning turlari, Bolalar poyabzali va ular uchun ishlatiladigan materiallar o‘ziga xos funksional xususiyatlarini bilishi.	2,5 %	1 ta
3	Qoliplarning tovon qismini ko‘tarilish balandligi.	Konstruksiyasi jihatidan asosiy tortish qoliplar quyidagi turlarga bo‘linadi. Yaxlit, arralangan ponali tutash va siljiydigan. Poyabzal qoliplarning tovon qismini ko‘tarilish balandligiga qarab har xil balandliklarga bo‘linishi haqida bilimlarga ega bo‘lishi lozim.	15 %	6 ta
4	Qismlarni mexanik usul bilan biriktirish.	Poyabzal qismlarni mexanik usulda biriktirishda charm buyumlarni tayyorlashdagi asosiy muomaladan biri qismlarni bir-biriga biriktirish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	7,5 %	3 ta
5	Poyabzal ustki detali uchun charmnı sarflash me‘yori va foydalanish foizini aniqlash.	Poyabzal ustki detali uchun charmnı sarflash me‘yori va foydalanish foizini aniqlash keltirilgan charm maydonidan bichish jarayonida quyidagi chiqindilar hosil bo‘lishi mumkin Andozalar aro, qirg‘oq, andozalar aro ko‘prik va material nuqsonlari va x.k.	17,5 %	7 ta
6	Poyabzalning tag detallarini loyihalash.	Poyabzalning tag detallarini loyihalash tag detallarini loyihalash ikki guruhga bo‘linadi. Yassi shakldagi tag detallar charm, rezina, plastmassa va hokazo materiallardan ikkinchisi shakllantirilgan yaxlit qo‘yma, yarim qo‘yma va qo‘yma usulda tayyorlangan detallar haqida bilib va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	2,5 %	1 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	45 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	40 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. A.Kamolov, A.A.Haydarov. Charm buyumlarni konstruksiyalash I qism 1990 yil.
2. S.Maqsudov Charm buyumlar texnologiyasi I jild 2004 yil “O‘AJBNT” markazi, 700078, Toshkent mustaqillik maydoni 5 uy
3. U.M.Maqsudova . Charm buyumlar texnologiyasi. 2015 yil “O‘AJBNT” markazi.
4. O.A.Haydarov, D.Z.Pazilova, N.B. Mirzayev. Charm buyumlarni konstruksiyalash 2021 yil.
5. S.Maqsudov Charm buyumlar texnologiyasi II jild 2004 yil 2004 yil O‘AJBNT” markazi, 700078, Toshkent mustaqillik maydoni 5 uy